

TURIZMNING MOHIYATI, TURLARI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH TARIXI

Ozodbek Ne'matov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizmni mohiyati, turlari hamda O'zbekistonda rivojlanishi aks etgan bo'lib, bugungi kunda jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan sohalaridan biri sifatida davlatimiz iqtisodiyotidagi o'rni hamda uning yillar davomida tadrijiy rivojlanishni dinamikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, "O'zbekturizm", ziyorat turizmi.

Bugungi zamonaviy dunyoda turizmga barcha tegishli davlat va jamiyat infratuzilmalarning rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hodisa sifatida qaralmoqda. Zamonaviy turizm ijtimoiy soha, transport va xizmat ko'rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslanadi. Bu esa pirovardida uni iqtisodiyotning yuqori daromadli sohasiga aylantiradi. Turistik talab ommaviy va ijtimoiy kategoriyadir. Shu bois u ko'plab omillar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bu esa ularning ta'siri va talabini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda ham turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash, tarixiy-madaniy meros obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, ularni ta'mirlash va obodonlashtirish, jumladan, ziyorat turizmi sohasini ravnaq toptirishga, shu orqali aholi turmush tarzini yaxshilash, ular uchun munosib hayot asoslarini yaratib berish borasida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" dasturining qabul qilinishi ushbu masalalarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir [1].

Turizm ijtimoiy-madaniy hodisa, madaniyatlararo muloqot va insonlarning o'zaro ijtimoiy faoliyatidir. Ijtimoiy munosabatlar sohasida turizm ma'lum bir tuzilmani shakllantirish darajasiga ega bo'lishi mumkin, chunki dunyodagi har 20 kishi u yoki bu tarzda turizm xizmatlari va industriyasi bilan bog'liq tarzda yashaydi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida aynan turizm orqali yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, aholining yuqori turmush darajasi ta'minlanmoqda, mamlakat to'lov balansini yaxshilash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Turizm sohasini rivojlantirish zarurati ta'lim darajasini oshirish, aholiga tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, axborot tarqatishning yangi vositalarini joriy etish va boshqalarga yordam beradi [2].

Xalqaro doirada turizm sohasi jadal rivojlanib borayotgan bir paytda O'zbekistonda ham turizmga qaratilayotgan alohida e'tibor natijasida bu soha

yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa sohaning turli yo'nalishlari toboro rivojlanib, uning boshqa sohalar qatori mavei ortib bormoqda. Ayniqsa kirish va chiqish turizmi rivojlanib, mahalliy xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatining yaxshilanishi mamlakat imidjini shakllantirish yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Turizm orqali amalga oshirilayotgan ishlar kishilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilib, mintaqalar va xalqlar o'rtasidagi etnomadaniy aloqalarni rivojlanishiga turtki bergan holda, mamlakatning iqtisodiy potensialini yuksalishiga xizmat qiladi.

Turizm - (turistik sayohatlar, fransuzcha "tour" so'zidan olingan) tashrif buyuruvchilarning doimiy yashash joyidan tashqari boshqa davlat yoki hududga, mehnat faoliyatidan tashqari har qanday maqsadda sayohatlari tushuniladi. Bunday sayohatni amalga oshiruvchi shaxs "turist", "sayohatchi", "mehmon" deb ataladi. Bunda mamlakatda madaniyat, iqtisodiyot rivojlanadi va iqtisodiyotning birinchi navbatda turizm bilan bog'liq bo'lgan tijorat faoliyati rivojlanadi. Ya'ni turizm industriyasi faollashadi. Masalan, sayyohlik agentliklari va boshqa servis, bronlash xizmatlari taraqqiy etadi.

Agar dunyo miqyosida turizmning rivojlanish tarixiga e'tibor qaratilsa, so'nggi o'n yilliklarda turistik sayohatlar sonining o'rtacha yillik o'sishi 4 foizdan oshdi, 2017 va 2018-yillarda bu ko'rsatkich 6 foizga yetgan edi. Agar 1950-yilda xalqaro sayyohlar soni 25 million kishini tashkil etgan bo'lsa, "pandemiyadan oldingi" 2019-yilda bu ko'rsatkich 60 barobar ko'p bo'lgan, ya'ni 1,5 milliard kishi. Pandemiya davridagi tegishli cheklovlar tufayli 2020-yil oxirida xalqaro sayyohlar soni 73 foizga qisqarib, 401 million kishini tashkil etdi, ya'ni 1989-yildan beri eng past darajani tashkil qilgan. 2021-2022-yillarda xalqaro turistik sayohatlar soni 4 foizga o'sdi va 416 million kishiga yetdi. 2021-2022-yillarda esa 2-martadan ortiq, ya'ni 960 million kishigacha oshdi.

"Turizm" tushunchasiga berilayotgan ta'riflar, u bajaradigan funksiyalarning xilma-xilligi va namoyon bo'lish shakllarining ko'pligi tufayli uning qisqacha va ayni paytda to'liq ta'rifini berish juda qiyin. Soha rivojlanishi jarayonida bu atamaga turli talqinlar hamda tavsiflar berildi va ularning har biri turizmning muayyan jihatlarini aks ettiradi. Aslida "turizm", "turist" so'zlari mohiyatini anglash va aniqlashning asosiy mezonlari quyidagilar:

- kishilarning o'z yashash joylarini o'zgartirishlari, ya'ni kundalik yashash joyidan tashqaridagi joylarga vaqtincha ko'chib o'tishlari;

- boshqa joyda qolish, yashash joyi doimiy yoki uzoq muddatli (12 oy yoki undan ko'proq) bo'lmasligi;

- tashrif buyurilgan joydagi faoliyat uchun to'lov, sayohatning maqsadi tashrif buyurilgan joydagi manbadan foydalangan holda yashashi, ishlashi (ammo ish haqqi bo'lmasligi) kabilar.

Turizm tushunchasiga oid ta'riflar ichida yana bir ta'rif mavjudki, bu biror bir mamlakat fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning doimiy yashash joyidan tibbiy, dam olish, ta'lim, jismoniy tarbiya, sport, kasbiy,

ishbilarmonlik, diniy va boshqa maqsadlarda vaqtincha jo'nab ketishlari (sayohatlari). Vaqtincha bo'lgan mamlakat (joy)dagi manbalardan daromad olish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmasdan boshqa maqsadlarda kelib-ketishlari, dam olishlari tushuniladi.

Turizm - bu turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistlik maksadlarga ega ommaviy sayohatlar turi, ya'ni turistning faoliyati va bunday sayohatlarni uyushtirish va amalga oshirish bo'yicha xizmat kursatuvchi faoliyat turi. Bunday faoliyat turli xil turistlik industriya korxonalari va ular bilan bog'liq tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi. Turizm faoliyati asosan bo'sh vaktda amalga oshiriladi. Bunday hol uchun ikki sharg b'yilishi kerak: dam olishga ajratilgan bush vaqt va mablag'. Uzoq vaqt davomida turizm faqat badavlat kishilarning ko'ngil ocha yumushi hisoblangan. Hozirgi paytda aholining turli qatlamlari bo'sh vaqtlarini va ajratilgan mablag'larini turli turistlik safarlarga borishga sarflamoqdalar.

Turizm - bu amalga oshiriladigan sayohat, ya'ni odamlar o'z bo'sh vaqtlarida, asosiy ishidan tashqarida, dam olish maqsadida, ta'lim, kasbiy, biznes, sport, diniy va boshqa maqsadlarda amalga oshiradigan faoliyat turidir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuniga ko'ra quyidagilar turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan: - turizm va turistik industriyani rivojlantirish; - fuqarolarning sayohat qilish paytidagi dam olish, erkin harakatlanish va boshqa huquqlarini ta'minlash; - turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash; - turizm sohasidagi normativ bazani takomillashtirish; - turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish va boshqalardir.

Turizm xususida so'z yuritilganda, uning turlarini anglash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, B. Orziqulovning qayd etishicha, Butunjahon turizm tashkiloti (WTO) – turizmning quyidagi turlarini alohida ajratib ko'rsatadi. Bular quyidagilar:

1. Sarguzasht turizmi. Bu turda asosan tog' cho'qqilariga chiqish, suv osti kemalarida sayohat qilish va "yerning oxiri" ga borish kabilar rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda bu turni tog' so'qmoqlari, cho'llar bo'ylab va Orol dengizi havzasiga sayohat marshrutlari bo'yicha rivojlantirish mumkin.

2. Dengiz va suv havzalari bo'ylab sayohat turizmi. U mahalliy va xalqaro miqyosda tashkil qilinib, dengizlar, daryolar, ko'llar, suv omborlari, suv havzalari bo'ylab tashkil qilinadi. O'zbekiston ham bu borada yetarli imkoniyatlarga ega bo'lib, ushbu yo'nalishni rivojlantirish Chorvoq suv ombori, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, Toshkent dengizi kabi suv manbalarida tashkil qilinishi mumkin.

3. Madaniy turizm. Turizm sohalari orasida nisbatan keng tarqalgan bo'lib, u ko'pincha insonlarning madaniy dam olishlari va xordiq chiqarishlari (ziyosat, sayohat, rekreatsiya turizm, sanotroiya va profilaktoriyalarda dam olish va h.k) ni anglatadi. U o'z navbatida bir qancha turlarga bo'linadi:

a) ziyorat turizmi.

- b) madaniy-tarixiy turizm
- v) ijtimoiy-madaniy turizm.

Shu o'rinda turizm turlari va ularning mohiyati haqida. Yuqorida biz turizmning ko'plab tasniflari mavjud, dedik. Uning tavsifi va klassifikatsiyasiga ko'ra chiqish, kirish va ichki turizm turlari bir-biridan farqlanadi. Jumladan, chiqish turizmi bir mamlakat fuqarolarining uning chegarasidan tashqariga chiqishi bilan bog'liq. Ichki turizm - turistlarning bir mamlakat ichida harakatlanishini anglatadi. Kirish turizmi - bu davlat hududiga chet elliklarning kirib kelishini anglatadi.

Bizningcha turistik sohalar rivojida sayohat muhim rol o'ynaydi va uni baholanadigan mezonlariga qarab, ko'plab tasniflarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, *dam olish turizmi, tibbiy turizm, ta'lim (ekskursiya) turizmi, gastronomik turizm, sport turizmi, rekreatsiya turizm, ekstremal turizm, ekoturizm* va b. I. Tuxliyev, R. Hayitboyev va boshqalar tomonidan yozilgan "Turizm asoslari" o'quv qo'llanmasida qayd etilishicha, turizmning xilma - xilligi uning bosh maqsadiga bog'liq holda ikki turga ajratiladi: Dam qolish yoki rohatlanish, ko'ngil ochar tur – (pleasure tour, delights tour). Bu turistlik dam olishning keng tarkalgan turidir;) Dam olish va sog'lomlashtirish maqsadidagi kurort (resort or health resort or iosort-spa) sg'lomlashtirshi va davolash maqsadlarda olib boriladigan turizm (Id iilli and fitnes tour or resort tour). Sanatoriylar, kurortlar, pansionatlar sog'lomlashtiruvchi davolovchi tashkilotlar, kurort zonalarida, shifobaxsh suvlar, shifobaxsh balchiqlar va boshqalar yordamida olib boriladi.

Turizm bozori - dunyoning ko'pgina mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotni yaratishda, qo'shimcha ishchi o'rinlari shakllantirish va aholi bandligini ta'minlash hamda tashqi savdo balansini faollashtirishda turizm bozori muhim o'rin tutadi. Turizm bozori iqtisodiyotning transport va aloqa, qurilish, qishloq xo'jaligi, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish va boshqalar kabi asosiy tarmoqlariga katta ta'sir ko'rsatadi. U ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning katalizatori vazifasini bajaradi. O'z navbatida, turizmning rivojlanishiga turli omillar, demografik, tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, diniy va siyosiy-huquqiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Turizmning iqtisodiy rivojlanishi jahon iqtisodiy bozoridagi ta'sirchan ma'lumotlar bilan tavsiflanadi. Bu esa turizm sohasi dunyoning ko'plab mamlakatlarida eng jadal rivojlanayotgan soha ekanligini va uning jahon iqtisodiyotidagi roli muttasil oshib borayotganini ko'rsatadi. Xalqaro turizm bozori o'z o'rnida bandlikka kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu sohada yangi ish o'rinlari iqtisodiyotning boshqa rivojlanayotgan tarmoqlariga qaraganda geografik jihatdan kengroq taqsimlangan. Zero, bu turizm bozori deb ataladi.

Turizm bozori (biznesi) dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Bugun turizm yaratilayotgan ish o'rinlari soni bo'yicha iqtisodiyotning barcha tarmoqlari orasida yetakchilik qilmoqda, ularning soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. Dunyo miqyosida 1998-yilda turizm sohasida 115 million kishi ish bilan ta'minlangan bo'lsa, 2020-yilga kelib

bu ko'rsatkich 550 millionga yetdi.

Ammo bugungi kunda turizm biznesi turli mamlakatlarda bir xil emas, ya'ni notekis rivojlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, turistlar boshqa yurtlarga asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan tashrif buyurishadi. Bularga chet elga chiqayotgan fuqarolarning ulushi 10 foizdan oshadigan davlatlar kiradi. Bunday davlatlar ko'p emas (taxminan 16-20), lekin ularning ro'yxati asta-sekin o'sib bormoqda. Inqirozdan oldin ular orasida G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya bilan bir qatorda, Sharqiy Yevropaning ba'zi davlatlari va Fors ko'rfazi mintaqasidagi mamlakatlar ham bor edi. Endi ularning o'rnini yaxshi rivojlanish sur'atlariga erishgan yangi davlatlar egalladi, ya'ni Xitoy, Koreya Respublikasi, Singapur va boshqalar. Turistlarni asosiy yetkazib beruvchi mamlakatlar, qoida tariqasida, sayyohlarni qabul qiluvchi asosiy mamlakatlar ham hisoblanadi. Ya'ni, turistlarning asosiy oqimi eng ko'p sayyohlar keladigan mamlakatlarga tashrif buyurishadi. Bu oqimning ma'lum bir qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham to'g'ri keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, bunda albatta turizm bozori muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlarga ko'ra bizningcha, turizm bozorida talablarning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillar quyidagilardir:

Birinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar: turistlarning ijtimoiy holati, moddiy farovonlik darajasi, mehnatga layoqatli aholi o'rtasidagi ish va bo'sh vaqtlarining nisbati, davlatdagi maxsus investitsion muhit, maxsus turistik zonalar mavjudligi, turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqilishi kabilar;

Ikkinchisi, ijtimoiy-demografik omillar: turistlarning yoshi, jinsi, kasbi, qaysi millat yoki dinga mansubligi, ijtimoiy statusi, oilaviy ahvoli, shaxsiy va ijtimoiy mulkning holati, oilasining tarkibi, yashash joyi (shahar yoki qishloq), ular yashaydigan aholi punktining katta-kichikligi, migratsiyasi kabilar;

Uchinchisi, madaniy va ijtimoiy-psixologik omillar: davlat yoki jamiyatning ma'naviy-madaniy qadriyatlari tizimidagi ustuvorliklari, turistlarning ijtimoiy-psixologik holati kabilar;

To'rtinchisi, shaxsiy-xulq-atvor omillari: dunyoqarash, turmush tarzi, bo'sh vaqti, qaysi sohaga qiziqishi, davlat va jamiyatlardagi mavjud ma'naviy qadriyatlar tizimi, maqsadlar, ichki-ruhiy motivatsiyalar, xalqning milliy mentaliteti hamda qadriyatlari kabilardan iborat.

Tadqiqotchilardan A. Muxanova, J. Smagulovalarning qayd etishlaricha, turizm bozori ko'plab funksiyalarni bajaradi. Jumladan, axborot, vositachilik, tartibga solish, narxlash, rag'batlantirish, ijodiy-destruktiv va farqlash kabilar. Ammo mualliflar turizmning asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni qayd etadilar:

1) turistik mahsulot tarkibidagi qiymat va iste'mol qiymatini realizatsiya qilish; 2) turistik mahsulotni iste'molchiga (turistga) yetkazish jarayonini tashkil etish; 3) turistik faoliyat va mehnatni moddiy rag'batlantirishni ta'minlash kabilarni o'z ichiga oladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan so'ng respublikada faqat nomigagina faoliyat yuritgan sayyohlik tashkilotlari respublika ichida va Ittifoq hududida fuqarolarni, ayniqsa talabalar, maktab o'quvchilarini Ittifoq va respublika shaharlariga sayohatlar tashkil qilish bilan shug'illangan. Ammo rasmiy tadbirlarda respublikaga tashrif buyurgan xorijiy teatr, kino, san'at, adabiyot sohalari xodimlari va xorijlik mutaxassislar bundan mustasno edi.

XX asr 60-yillaridan e'tiboran O'zbekistonda turizm sohasining faol bosqichi boshlanadi. Bu davrda mahalliy aholi uchun turizm xizmat putyovkalari va yo'llanmalar taqdim etish, sayohat dasturlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston SSR Profsoyuz Kengashining Turizm va ekskursiyalar bo'yicha "Turistik ekskursiya boshqarmasi" tashkil etildi. Ushbu boshqarma 1960-1973-yillarda turli nomlarda faoliyat yuritgan. 1964-yil 13-iyunda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida maxsus obyektlar, umumturistik ko'rsatkichlar va ekskursiya xizmat shakllarini takomillashtirish maqsadida "Chet el turizmi boshqarmasi" tashkil etildi. Yevropa davlatlarida 1950-yillardayoq turizm sohasidagi shunga o'xshash tashkilotlar o'z faoliyatini shakllantirgan bo'lib, ular bevosita sug'urta agentliklari bilan hamkorlikda ish olib borar edi. O'zbekistonda 1969-1970-yillarda turistlarga xizmat ko'rsatish darajasi bir muncha yaxshilanib, chet elliklar tashrifi 20-30 foizga ortdi. Bu davrda O'zbekiston xorijlik sayyohlarni qabul qilish bo'yicha Rossiya, Ukraina va Gruziyadan so'ng to'rtinchi o'rinni egallar edi.

Ammo o'sha kezlarda turizmdan keladigan daromadning markaz manfaatlariga bo'ysundirilganligi natijasda O'zbekiston tarixiy-madaniy obidalarini tiklash, ta'mirlash va muhofazalash, muzeylar fondidagi noyob eksponatlarning to'laqonli ekspozitsiyasini tashkil etishda mablag'lar yetishmovchiligiga duch kelinar edi. 1983-yil 27-oktyabrda Chet el turizm boshqarmasi "O'zbekiston Chet el turizm Bosh boshqarmasi" deb o'zgartirildi. 1988-yil 26-iyunda hukumat qarori bilan ushbu boshqarmaning faoliyati tugatildi. 1989-yilda O'zbekiston Ministrlar Soveti qoshida "Sayyoh-intur" xo'jalik hisobidagi birlashmasi tashkil topdi.

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng respublika ijtimoiy, madaniy sohalarida va iqtisodiyotda, jumladan, turizm sohasida ham mustaqil islohotlarni amalga oshira boshladi. Biroq SSSR davrining so'nggi bosqichlari va mustaqillikning ilk yillarida, to'g'rirog'i XX asr 90-yillarda O'zbekistonda turizm salmog'i hali past darajada edi. 90-yillarning oxirlarida, xorijiy mamlakatlardan keluvchi sayyohlar soni sezilarli darajada osha boshladi va bu soha milliy brend darajasiga ko'tarila boshladi. Ammo hali barcha imkoniyatlar to'liq ishga solinmagan, sohada ko'pgina muammolar mavjud edi. Shunday bo'lsada, O'zbekiston boy tarixiy va madaniy merosga ega ekanligi, madaniyat, arxitektura yodgorliklariga boyligi va ko'plab san'at sohalari rivojlanganligi turizm ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim o'rin tutganligidan darak berar edi.

Agar soahning mustaqillik yilaridagi rivojlanish tarixiga e'tibor qaratilsa, 1992-yil 20-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 484-son "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida" gi Qarori qabul qilingani ilk qadamlardan bir edi. Unga ko'ra kompaniyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

-O'zbekiston hududida turizm sohasidagi yagona siyosatni ishlab chiqish, uni amalga oshirishni ta'minlaydigan muvofiqlashtiruvchi bosh idora hisoblanishi;

-to'la xo'jalik hisobi, valyuta bilan o'zini o'zi qoplashi va o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash qoidalari asosida moliyaviy-iqtisodiy, xo'jalik va ijtimoiy faoliyat masalalarini mustaqil hal etishi;

-kompaniyaning korxonalari va tashkilotlari mol-mulkini boshqarishi, ularni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishda belgilangan tartibda qatnashishi belgilandi. Milliy kompaniya tarkibiga SSSR davrida respublikada faoliyat yuritgan 34 ta turistik korxona va tashkilotlar biriktirildi.

1992-yil sentyabr oyida Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan "O'zbekistonda xalq an'analari va marosimlarini tiklash, tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash, o'rganish va ta'mirlash hamda 2000-yilgacha bo'lgan davrda respublikada turizmni rivojlantirish konsepsiyasi va uyg'un dasturi" qabul qilindi. Konsepsiya va uyg'un dasturga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning 2000 - yilgacha mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari va bosqichlari" rejasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra:

I-bosqich. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va bosqichlarini belgilash bosqichi (1992-yil);

II-bosqich. Iqtisodiy ahvolni barqarorlashtirish va sohani bozor munosabatlariga o'tkazish uchun shart sharoitlar yaratish davri (1993-1994-yillar);

III-bosqich. Sohani mukammal faoliyat ko'rsatish tizimini tashkil etish hamda xalqaro turistik bozorga integratsiya qilish bosqichi (1995-1997-yillar);

IV-bosqich. Turizmning hozirgi zamon sanoatini vujudga keltirish bosqichlarini keltirish o'rinli (1998-2000-yillar).

1992-yilda "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi sayohat turiga qarab respublikada quyidagi turizm marshrutlarini ishlab chiqdi: *-klassik turizm yo'nalishi* (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz sh). Yodgorliklarni ziyorat qilish bilan bog'liq va boshqa tarixiy va madaniyat yodgorliklariga tashriflar uyushtirish; *-ekologik turizm yo'nalishi* (Chimyon, Chorvoq dam olish maskani va davolash, Zomin qo'riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo'riqxonalar). Bu marshrut alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va hisobga olinadigan joylarga tashrif buyurish bilan bog'liq bo'lib, turistlar uchun ekologik jihatdan foydali xizmatlarni tashkil etishni o'z ichiga olgan; *-arxeologik turizm yo'nalishi* (Surxondaryo viloyati, Samarqand, Farg'ona, Namangan va b). Bu O'zbekistonda qadimiy topilmalar, arxeologik qazishmalar olib boriladigan joylarga turlar

uyushtirish kabilarni o'z ichiga oldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak turizm bugungi kunda butun dunyoda rivojlanib taraqqiy etib borayotgan muhim sohalar biri hisoblanadi. Ushbu soha aynan O'zbekistonda ham so'nggi yillarda tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan sohalardan hisoblanadi. Ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun joylarda keng ko'lamli tadbirlar o'takazilishi barobarida, turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-sonli Farmoni// Xalq so'zi. 2018-yil, 8-fevral. №26-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 7-fevralidagi PQ-3514-sonli qarori / www.lex.uz; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "2018–2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori / www.lex.uz.

3. Коровушкина А.А. Современное состояние мирового туризма. <https://scienceforum.ru/2021/article/2018024033>.

4. Линдер В.И. Большая Российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2004-2017. Яна қаранг: Мирзаев М. Алиева М. Туризм асослари.-Т., 2011. -Б. 63.

5. Петрова М.А. Тенденции и перспективы в глобализации отдельных отраслей экономики // Новые тренды в экономической глобализации / Под ред. А.С.Булатова, Н.В.Галищевой, М.А.Максаковой. - М.: Общество с ограниченной ответственностью Издательство "Аспект Пресс", 2023. - С. 146-150. - 505 с.

6. Буйленко В. Ф. Туризм. - Ростов Н/Д.: Феникс, 2008. - 411 с.

7. Тухлиев И, Ҳайитбоев ва бошқалар. Туризм асослари. Самарқанд. 2010.-Б. 59. Яна маълумотлар олиш учун қаранг: Мирзаев М. Алиева М. Туризм асослари.-Т., 2011. -Б. 63.; Ҳайитбоев Р, Амриддинова Р. Туризмнинг махсус турлари. (Услубий қўлланма). -Самарқанд.2008. -Б 12.; Гаппаров А. Ўзбекистонда зиёрат-рекреация туризмини ривожлантириш йўллари. // Бизнес-эксперт. Тошкент. 2019. № 6 -Б. 27-28.

8. Таиғинова, Т. Т. Туризм саноатининг мамлакат иқтисодиёти ва ижтимоий-маданий соҳасига таъсири / Иқтисодиёт фанларининг долзарб масалалари: Халқаро халқаро илмий конференция материаллари. Уфа, 2011 йил октябрь). -125-128-бетлар.

9. Тухлиев И, Ҳайитбоев ва бошқалар. Туризм асослари. Самарқанд. 2010.-Б. 28-29. Бу хусусда маълумот олиш учун яна қаранг: Холдоров Т. Туризм. (Касб-хунар коллежлари учун қўлланма). Т. 2006.

10. Абдуазимова Д. Ўзбекистонда туризмнинг ривожланиши. // "Science and Education". Scientific Journal / Impact Factor. 3.848 may 2023 / Volume 4 issue 5.

11. Ўзбекистон Республикасининг «Туризм тўғрисида»ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. -Т.. 1999.№9.